
"Iftixor" mahallasida 3000 metr oqova suvi tarmog'i tortilmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Iftixor" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Aeroport, Mushtarak, Barhayot va Tutzor ko'chalarida 3000 metr masofada oqova suvi tarmog'ini tortish ishlari olib borilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 1 mlrd. 650 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-02-27 10:21:08